

## “HAZRATI XIZR IZIDAN” QISSASIDA MIFOLOGIK UNSURLAR

**Nuritdinova Nigina Faxritdin qizi,**

*O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti*

*“O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi” magistranti*

[niginanuriddin86@gmail.com](mailto:niginanuriddin86@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Hazrati Hizr izidan” qissasida uchraydigan mifologik unsurlar adabiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy o‘zbek nasrida mifologik qatlamning qayta talqin etilishi muhim ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Tadqiqotning maqsadi – asarda mavjud mifologik obrazlar, arxetiplar hamda ramziy motivlarning badiiy funksiyasini aniqlash va ularning mazmuniy yukini ochib berishdan iborat. Metodologik asos sifatida qiyosiy-tahliliy, struktural-semantik hamda intertekstual yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Hazrati Hizr obrazi asarda abadiy yo‘l ko‘rsatuvchi, yashirin bilim egasi sifatida talqin qilinib, xalq og‘zaki ijodi hamda diniy-mifologik qarashlar sintezi asosida shakllangan. Suv, yo‘l, yashirin ilm, sinov kabi motivlar mifologik tafakkur mahsuli sifatida asarning semantik qatlamini boyitadi, mifologik unsurlar asarning g‘oyaviy-badiiy tizimini chuqurlashtiradi va muallifning estetik konsepsiyasini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** mifologik unsurlar, Hazrati Hizr, arxetip, ramz, motiv, o‘zbek nasri, folklor, intertekstual tahlil.

**Аннотация.** В данной статье проводится литературно-теоретический анализ мифологических элементов в повести «По следам Хазрата Хизра». Актуальность исследования обусловлена тем, что переосмысление мифологического слоя в современной узбекской прозе представляет собой важную научную проблему. Цель работы – выявить художественные функции мифологических образов, архетипов и символических мотивов, а также раскрыть их смысловую нагрузку. В качестве методологии использованы сравнительно-аналитический, структурно-семантический и интертекстуальный подходы. Результаты анализа показывают, что образ Хазрата Хизра интерпретируется как вечный наставник и носитель скрытого знания. Такие мотивы, как вода, путь, тайное знание и испытание, обогащают семантическую структуру произведения. В заключение отмечается, что мифологические элементы углубляют идейно-художественную систему текста.

**Ключевые слова:** мифологические элементы, Хазрат Хизр, архетип, символ, мотив.

**Abstract:** This article presents a literary-theoretical analysis of mythological elements in the story “In the Footsteps of Khizr”. The study aims to identify the artistic functions of mythological images, archetypes, and symbolic motifs. Comparative, structural-semantic, and intertextual approaches are applied. The findings show that Khizr is depicted as an eternal guide and bearer of hidden knowledge. Motifs such as water, journey, and hidden knowledge enrich the narrative. Mythological elements deepen the artistic meaning of the work.

**Keywords:** mythological elements, Khizr, archetype, symbol, motif.

**Kirish.** Xizr (Hazrati Xizr) obrazi Sharq xalqlari ma’naviy tafakkurida, xususan o‘zbek folklori va adabiyotida alohida o‘rin egallagan ko‘p qatlamli mifologik-tasavvufiy timsoldir. U aniq tarixiy shaxs emas, balki asrlar davomida shakllangan xalq e’tiqodi, diniy rivoyatlar va badiiy tafakkur uyg‘unligidan vujudga kelgan ramziy obraz hisoblanadi. Xizr obrazi inson va ilohiy haqiqat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib, hayot, baraka, rahm-shafqat va botiniy ilm timsoli sifatida talqin qilinadi.

Xizr obrazining asosiy manbai Qur’oni karimning “Kahf” surasida keltirilgan Muso alayhissalom va “ilm berilgan banda” haqidagi qissadir. Islomiy tafsir va rivoyatlarda

ushbu banda Xizr deb ataladi. Ushbu qissa orqali Xizr inson aqli yetmaydigan ilohiy hikmat egasi, tashqi mezonlar bilan baholab bo'lmaydigan botiniy ilm sohibi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan u adabiyotshunoslikda "sirli ustoz", "yo'l ko'rsatuvchi", "sinovchi" obrazlarining arxetipi sifatida talqin qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek xalq folklorida Xizr ko'pincha Xizr bobo yoki Xizr buva nomlari bilan tilga olinadi. U oddiy yo'lovchi, kambag'al qariya yoki yashil libosli kishi qiyofasida paydo bo'lib, kutilmagan paytda insonlarga yordam beradi. Folklor rivoyatlarida Xizr bosgan yerda suv chiqishi, u kirgan xonadonga baraka kirishi, yo'qolgan umidlarning tiklanishi kabi motivlar keng tarqalgan. Bu esa Xizr obrazining suv, hayot va yashillik bilan bog'liq qadimiy mifologik ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalq rivoyatlarida uni tanimaslik, haqoratlash yoki bepisand munosabatda bo'lish inson uchun katta ma'naviy yo'qotish sifatida talqin etiladi. Bu holat "avliyoni tanimaslik" motivi orqali insonning ichki dunyosi va e'tiqodi sinovdan o'tkazilishini anglatadi.

Mumtoz adabiyotda Xizr obrazi asosan tasavvufiy mazmunda talqin qilinadi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi asarlarida Xizr ilohiy ma'rifatga yetaklovchi pir, botiniy ilm egasi sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvufda Xizr muridni tashqi bilim bilan emas, qalb pokligi, sabr va tavakkul orqali kamolga yetkazuvchi timsoldir. [1.384] U zulmatdan o'tib nurga yetish, nafsni yengish va haqiqatga erishish ramzi sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa Xizr obrazi mifologik timsol sifatida yangicha badiiy-falsafiy ma'no kasb etadi. U endi aniq mo'jizalar ko'rsatuvchi shaxsdan ko'ra, insonni o'z vijdoni, mas'uliyati va rahm-shafqati bilan yuzlashtiruvchi ramzga aylanadi. Isajon Sultonning "Hazrat Xizr izidan" qissasida Xizr tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni tiklovchi, jonivorlarni asrovchi, hayotni himoya qiluvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi. Bu asarda Xizr mo'jiza emas, balki inson qalbida uyg'onishi lozim bo'lgan axloqiy mezonning ifodasidir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Xizr obrazini jahon mifologiyasi bilan qiyoslaganda ham uning umuminsoniy arxetip ekanini ko'rish mumkin. Yunon mifologiyasidagi Germes, skandinav rivoyatlaridagi Odin, xristian an'alaridagi tanilmas qiyofadagi Iso obrazlari Xizr bilan mushtarak jihatlarga ega. Ularning barchasi insonni sinovdan o'tkazuvchi, yo'l ko'rsatuvchi va ma'naviy uyg'otuvchi timsollardir.

Umuman olganda, Xizr obrazi folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotda uzluksiz yashab kelayotgan, zamon va makon bilan cheklanmagan ko'p qatlamli timsoldir. U insonni ezgulikka chorlovchi, hayotning muqaddasligini eslatuvchi va ilohiy hikmatni anglashga undovchi ramz sifatida adabiy tafakkurda muhim o'rin tutadi. Xizr — bu faqat rivoyatlardagi shaxs emas, balki insonning o'z qalbida izlab topishi lozim bo'lgan ma'naviy haqiqatdir.

Isajon Sultonning "Hazrat Xizr izidan" qissasi zamonaviy o'zbek nasrida mifologik tafakkur va diniy-afsonaviy qarashlarning badiiy sinteziga asoslangan asarlardan biridir.

Qissada Hazrat Xizr obrazi markaziy mifologik timsol sifatida gavdalanib, xalq e'tiqodlari, diniy rivoyatlar va afsonaviy tasavvurlar badiiy idrokdan o'tkaziladi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Xizr obrazi xalq ongida ko'pincha kutilmagan paytda zohir bo'ladigan, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklovchi muqaddas shaxs sifatida tasavvur qilinadi [2.40-41].

Isajon Sulton ushbu an'anaviy tasavvurni saqlagan holda, uni mifologik-falsafiy obraz darajasiga ko'taradi. Qissada Xizr payg'ambar yoki tarixiy shaxs sifatida emas, balki kosmik tartibni saqlovchi kuch timsolida namoyon bo'ladi.

**Tahlillar va natijalar.** Qissadagi "Qizilqumdagi voqea" epizodi o'zbek mifologiyasidagi "suv – hayot manbai" motivining yorqin ifodasidir. Sahroda holsizlangan jayron bolasi, uni qurshab turgan yirtqichlar va kutilmaganda paydo bo'lib, qum bag'ridan buloq chiqaradigan yashil tunli chol obrazi bevosita Xizr bilan bog'lanadi.

Bu epizodda Xizrning kafti tekkach suv chiqishi qadimiy mifologik e'tiqodlarga borib taqaladi. Xalq tasavvurida Xizr qadam bosgan yoki qo'l tekkizgan joydan suv chiqishi — najot va baraka alomati sanaladi. Buloqning keyinchalik "Jayronbuloq" deb atalishi esa mifologik voqeaning toponimik afsonaga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Bu holat Meletinskiy ta'kidlaganidek, mifdan afsonaga o'tish bosqichining badiiy ifodasidir[4.407].

Qissada Xizrning tulkini ozod qilishi, kiyik bolasini qutqarishi kabi epizodlar xalq e'tiqodidagi avliyoning hayvonlarga shafqat ko'rsatishi motiviga asoslanadi. Shoymardon chol bilan bog'liq voqeada Xizr tulkini o'limdan saqlab qoladi. Bu yerda yozuvchi ovchilik instinkti bilan rahm-shafqat o'rtasidagi ziddiyatni mifologik yechim orqali hal qiladi. Natijada Shoymardon cholning ma'naviy o'zgarishi sodir bo'ladi. U Xizr bilan uchrashuvdan so'ng taqvodor, hikmat izlovchi insonga aylanadi. Bu holat mifologik tafakkurda muqaddas shaxs bilan uchrashuv inson ruhiyatida tub burilish yasashi haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi.

"Tog'lar orasidagi voqea" epizodida Xizr yana hayot va o'lim o'rtasidagi muvozanatni tiklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Tog' — mifologik tafakkurda ilohiy makon, osmon va yer o'rtasidagi chegaraviy hudud hisoblanadi. Shu sababli Xizrning aynan tog' bag'rida zohir bo'lishi tasodifiy emas.

Kiyik bolasining tuzalishi Xizrning shifobaxshlik, hayotiy quvvat berish xususiyatini ifodalaydi. Bu holat o'zbek mifologiyasida Xizrning "tiriltiruvchi kuch" sifatidagi talqiniga mos keladi.

Qissada Xizrning aniq qabri yo'qligiga qaramay, turli hududlarda "Hazrat Xizr mozori" deb ataluvchi maskanlarning mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Bu holat xalq ongida Xizrning o'lmaslik xususiyati bilan bog'liq paradoksni yuzaga chiqaradi: "Xizr o'lmagan, ammo mozori bor".

**Xulosa.** Muallif bu ziddiyat orqali xalq e'tiqodining murakkab tabiatini ochib beradi. Ziyorat, qurbonlik, tilak tilash kabi marosimlar mifologik tafakkurning hanuz tirik ekanini

ko'rsatadi. Shu bilan birga, yozuvchi bunday e'tiqodlarga tanqidiy nigoh bilan ham qaraydi, ularni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki xalq ruhiyatining mahsuli sifatida talqin qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Hazrat Xizr izidan" qissasida o'zbek mifologiyasi unsurlari oddiy folklorizm (afsonaviy motivlarning bevosita qo'llanilishi), murakkab folklorizm (mif va falsafiy g'oyalarning uyg'unligi) hamda sintezlashgan folklorizm (xalq e'tiqodlari, diniy rivoyatlar va muallif tafakkurining qo'shilishi) asosida badiiy talqin etilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy A. Xamsa. — Toshkent: Faqur Gulom nomidaagi nashriyat, 2011. — 5 jild., Jomiy A. Nafohot ul-uns. — Toshkent: Ўzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. — 384 b., Atgor Ф. Mantiq ut-tayr. — Toshkent: Faqur Gulom nomidaagi nashriyat, 2012. — 352 b., Rumiy Ж. Masnaviy maъnaviy. — Toshkent: Fan, 2008. — 6 jild.
2. Sul-ton I. Asarlar. 1-jild. Xoqoyalar. - Toshkent: Faqur Gulom, 2017.
3. Sarimsokov B. Folyklorizmлар типологиясига доир // Ўзбек тилива адабиети, 1980. —№4. — Б. 40-41
4. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. — М.: Наука, 1976. — 407 с.

